

OLMOSHLARNING USLUBIYATI

Abdujabborov Ravshanjon

*Farg'ona viloyati, Rishton tumani 2-son kasb -hunar maktabi Ona tili va adabiyoti
o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada olmosh so'z turkumining o'rganilishi va uslubiyati haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *olmoshning turlari, morfologiya, so'roq olmoshi, sof olmosh, ot so'z turkumi*

Tilshunoslikning morfologiya bo'limi so'z turkumlarining tadqiqini amalga oshiradi. Ma'lumki, so'z turkumlari besh guruhdan tashkil topgan, ya'ni:

1. Mustaqil so'z turkumlari.
11. Yordamchi so'z turkumlari.
111. Undov so'zlar.
- IV. Taqlid so'zlar.
- V. Modal so'zlar[2].

Ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, biz tadqiq etmoqchi bo'lgan ushbu maqolada olmosh vazifasida qo'llaniluvchi so'zlarning lingvistik jihatlarini tadqiqot obyekti sifatida qayd etiladi.

Olmosh so'z turkumi ikki xil ko'rinishga ega, ya'ni sof olmosh tabiatli so'zlar hamda olmosh vazifasida qo'llaniluvchi so'zlar. Sof olmoshlar o'zida olmoshning barcha jihatlarini aks ettiradi, uning tub mohiyati ham olmosh ma'nosini ifodalaydi, ularga misol sifatida men, sen, ular, kimdir, nimadir va hokazolarni keltirish mumkin[5]. Olmosh vazifasida qo'llaniluvchi istilohlar esa tabiatan olmosh xarakteriga ega bo'lsa-da, biroq ularning kelib chiqishi aslan boshqa so'z turkumlariga, chunonchi, ot, sifat so'z turkumlari oid bo'ladi. Nomlari qayd etilgan har ikki toifa bir-biridan barcha jihatlariga ko'ra farqlanadi hamda ularning ayrim o'xshash jihatlarini ham mavjud[3]. Uni quyidagi jadval asosida ko'rib chiqamiz:

	Sof olmosh tabiatli so'zlar	Olmosh vazifasida keluvchi so'zlar
1	Olmoshning barcha xususiyatlarini o'zida aks ettiradi.	Olmoshning barcha xususiyatlarini o'zida aks ettiradi.
2	Kelib chiqishiga ko'ra ham olmosh turkumiga mansub bo'ladi.	Kelib chiqishiga ko'ra boshqa so'z turkumlariga oid bo'lishi mumkin.

3	Ayrim hollarda asl so'z turkumi bajargan vazifasini baj aradi (masalan, sifat so'z turkumiga oid bo'lsa, sifat so'z turkumining xususiyatini aks ettirishi mumkin)
---	--

Olmosh vazifasida keluvchi so'zlarga faqir, kamina, kaminayi ojiz, bandai ojiz va shu kabilarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Ushbu so'zlarga e'tibor beradigan bo'lsak, ularning ayrimlari sifat so'z turkumiga (faqir), ayrimlari ot so'z

turkumiga (kamina) va ba'zilari esa izofali birikma (bandai ojiz, kaminayi ojiz) ko'rinishiga ega.

Faqir olmosh vazifasida qo'llaniluvchi so'zlardan biri hisoblanib, uning etimologiyasiga yuzlanadigan bo'lsak, ushbu so'zning arab tilidan o'zlashganligiga guvoh bo'lamiz. Lug'aviy istilohi esa "kambag'al", "qashshoq", "muhtoj" kabi so'zlarda namoyon bo'ladi. Wikipedia onlayn lug'atida ushbu atamaga quyidagicha izoh beriladi[4]:

1. Moddiy jihatdan nochor, kambag'al, qashshoq; muhtoj.

11. Birinchi shaxs o'rnida yoki "men", "biz" olmoshlari bilan birgalikda ishlatilib, so'zlovchining kamtarlik qilayotganligini ifodalaydi.

Demak, ushbu maqolamiz uchun "faqir" leksemasining ikkinchi ma'nosi ahamiyatli hisoblanib, unga misol sifatida quyidagi sintaktik butunlikni keltirishimiz mumkin: "Faqir u zotning suhbatlaridan bahramand bo'lgan paytlarimni eslasam, yuragim ezilur". Pirmqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" asarida qo'llanilgan "faqir" istilohiga e'tibor beradigan bo'lsak, ushbu leksik birlik doirasida quyidagi xususiyatlarni umumlashtirishimiz mumkin:

a) Olmosh vazifasida qo'llanilishi mumkin.

b) Ushbu so'z ishtirok etgan gaplarning kesimi gap talabiga ko'ra birinchi yoki uchinchi shaxsda bo'ladi.

c) Kamtarlik, xokisorlik ma'nosini o'zida ifoda etadi.

Bandai ojiz so'z forsiy tildan o'zlashgan izofali birikma hisoblanib, asl ko'rinishi "ojiz banda" sintaktik butunligi tarzida namoyon bo'ladi. Olmosh vazifasida qo'llaniluvchi leksik birlik sifatida badiiy matnlarda qo'llanilishi mumkin[7]. Xuddi faqir leksemasi singari ushbu birlik ishtirok etgan gaplarning kesimi vaziyat taqozosiga ko'ra birinchi yoki uchinchi shaxs shaklida qo'llaniladi. Uning boshqa variantlari ham mavjud, ya'ni bandai g'ofil, bandai mo'min, bandai mutakabbur va hokazo. Keltirilgan variantlar bir-biridan mazmun jihatidan farq qilsada, biroq ularda umumiylik, ya'ni kamtarlik ma'nosini ifodalash ularni birlashtirib turuvchi xususiyat sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, olmosh vazifasida qo'llaniluvchi so'zlarning o'ziga xos jihatlari mavjud bo'lib, ularning qanday xususiyatlarni o'zida

namoyon qilishi ayrim hollarda gapda yuzaga keladigan vaziyat taqozosi o'laroq namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mengliyev B. Lisoniy sistema yaxlitligi va unda sathlararo munosabatlar: filol. fan. dokt dis. - T., 2002.
2. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. — Qarshi: Nasaf, 2005.
3. Mirtojyev M. O'zbek tilida polisemiya. — T.: Fan, 1975.
4. Ne'matov H. , Bozorov O. Til va nutq. — T.: O'qituvchi, 1989.
5. Ne'matov H. , Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari.-T.: O'qituvchi, 1995.
6. www.wikipedia.org
7. www.ziyouz.com
8. www.google.com

